Central Asian Research Journal of Natural and Exact Sciences
INTERNATIONAL SCIENTIFIC, APPLIED AND THEORETICAL JOURNAL
2026 / № 1(2)
SCIENCE FOR A SUSTAINABLE CENTRAL ASIA

NAVOIY VILOYATIDAGI ZIYORATGOHLAR VA MUQADDAS QADAMJOLARNING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA HUDUDIY XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar: Kimsanboyeva Shaxnoza Bakriddinovna
Falsafa fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori, dotsent
Toshkent davlat agrar universiteti kafedrasi dotsenti
Tel.: +99899 403-00-73
Xodjiyeva Dildora Umarovna
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
2-bosqich magistranti
Tel.: +99897 705-56-40
e-mail: hadzaevadildora22@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Navoiy viloyati hududidagi ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolarning vujudga kelishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda hududiy joylashuviga ta’sir ko‘rsatgan omillar o‘rganilgan. Karmana, Hazora–Deggaron, Qiziltepa–Vang‘ozi va Nurota hududlarida shakllangan diniy-me’moriy maskanlarning tarixiy xususiyatlari o‘rta asr yozma manbalari, me’morchilik tarixiga oid tadqiqotlar va mahalliy o‘lkashunoslik adabiyotlari asosida tahlil qilingan. Ziyoratgohlarning qadimiy aholi manzilgohlari, savdo yo‘llari, tabiiy suv manbalari va tasavvufiy muhit bilan aloqadorligiga alohida e’tibor qaratilgan. Mir Sayyid Bahrom maqbarasi, Qosim Shayx majmuasi, Deggaron masjidi, Mavlono Orif Deggaroniy qadamjosi, Vang‘ozi Toshmasjidi va Nurota–Chashma majmuasi misolida diniy maskanlarning shakllanishidagi umumiy va mahalliy xususiyatlar ochib berilgan. Ziyoratgohlar tarixiy kelib chiqishi, me’moriy tuzilishi va vazifalariga ko‘ra tasniflanib, ularning hududning ijtimoiy-madaniy hayoti hamda tarixiy xotirasidagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Navoiy viloyati, ziyoratgoh, muqaddas qadamjo, Karmana, Hazora, Deggaron, Nurota, Vang‘ozi, Mir Sayyid Bahrom, Qosim Shayx, Mavlono Orif

Deggaroniy, tarixiy topografiya, tasavvuf, diniy-me’moriy meros.

ИСТОРИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ И ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МЕСТ ПАЛОМНИЧЕСТВА И СВЯЩЕННЫХ МЕСТ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В статье рассматриваются историческое формирование мест паломничества и священных мест Навоийской области, этапы их развития и факторы, определившие территориальное размещение. На основе средневековых письменных источников, исследований по истории архитектуры и краеведческой литературы изучены религиозно-архитектурные памятники Карманы, Хазары–Деггарона, Кызылтепы–Вангози и Нураты. Особое внимание уделено связи священных мест с древними поселениями, торговыми путями, природными источниками воды и суфийскими традициями. На примере мавзолея Мир Саида Бахрома, комплекса Касым Шейха, мечети Деггарон, священного места Мавлоно Арифа Деггарони, мечети Тошмасжид и комплекса Нурата–Чашма выявлены общие и локальные особенности формирования мест паломничества. Представлена их историко-функциональная классификация и раскрыто значение в сохранении культурной памяти населения региона.

Ключевые слова: Навоийская область, паломничество, священные места, Кармана, Хазара, Деггарон, Нурата, Вангози, Мир Саид Бахром, Касым Шейх, Мавлоно Ариф Деггарони, историческая топография, суфизм, архитектурное наследие.

HISTORICAL FORMATION AND TERRITORIAL FEATURES OF PILGRIMAGE SITES AND SACRED PLACES IN NAVOI REGION

Abstract. The article examines the historical formation of pilgrimage sites and sacred places in Navoi Region, the stages of their development, and the factors influencing their territorial distribution. Drawing on medieval written sources, architectural studies, and regional historical literature, it explores religious and

architectural sites in Karmana, Hazara–Deggaron, Qiziltepa–Vangozi, and Nurata. Particular attention is paid to the relationship between sacred sites, ancient settlements, trade routes, natural water sources, and Sufi traditions. The mausoleum of Mir Sayyid Bahrom, the Qosim Shaykh complex, Deggaron Mosque, the sacred site associated with Mavlono Orif Deggaroniy, Toshmasjid Mosque, and the Nurata–Chashma complex are examined to identify common and local patterns in the development of pilgrimage places. The article also classifies these sites according to their historical origins, architectural features, and religious functions, highlighting their significance in preserving the cultural memory of local communities.

Keywords: Navoi Region, pilgrimage sites, sacred places, Karmana, Hazara, Deggaron, Nurata, Vangozi, Mir Sayyid Bahrom, Qosim Shaykh, Mavlono Orif Deggaroniy, historical topography, Sufism, architectural heritage.

Kirish (Introduction)

O‘zbekiston hududidagi tarixiy ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar xalqning diniy e’tiqodi, ma’naviy qadriyatlari va ko‘p asrlik madaniy taraqqiyotini o‘zida mujassam etgan tarixiy maskanlardir. Ularning shakllanishi muayyan tarixiy shaxslarning faoliyati yoki diniy qarashlarning tarqalishi bilangina chegaralanmaydi. Qadimiy aholi manzilgohlari, tabiiy-geografik sharoit, savdo yo‘llari, siyosiy boshqaruv markazlari va mahalliy jamoalarning ijtimoiy hayoti ham muqaddas maskanlarning vujudga kelishi hamda rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Navoiy viloyati hududi Markaziy Osiyoning qadimiy tarixiy-madaniy markazlari bo‘lgan Buxoro va Samarqand oralig‘ida joylashgan. Hozirgi viloyatning ma’muriy chegaralari nisbatan keyingi davrda shakllangan bo‘lsa-da, uning tarkibidagi Karmana, Nurota, Qiziltepa va boshqa tarixiy manzilgohlar qadimdan Zarafshon vohasi hamda unga tutash hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o‘rin egallagan. Buxoro va Samarqandni bog‘lovchi karvon yo‘llarining ushbu hududdan o‘tishi savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy aloqalarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratgan [1]. O‘rta asr yozma manbalarida Karmananing Buxoro vohasidagi muhim aholi manzilgohlaridan biri

bo‘lganligi qayd etiladi. Muhammad Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida Karmanani Buxoro mulkiga qarashli rustoq sifatida tavsiflab, unda jome’ masjidi mavjudligi, adib va shoirlarning ko‘pligi haqida ma’lumot bergan [2, 95-b.]. Ibn Havqalning «Kitob surat al-ard» asarida ham Karmaniyaning iqtisodiy va geografik mavqeyiga e’tibor qaratilgan. Muallif uni Tavois bilan qiyoslab, aholisi va yerlarining hosildorligi jihatidan tavsiflaydi [3, 49-b.]. Ushbu xabarlar Karmananing o‘rta asrlardagi shahar madaniyati va diniy-ma’rifiy muhiti haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Navoiy viloyatidagi diniy-me’moriy merosning muhim jihati uning turli tarixiy davrlarga mansubligidir. Karmana hududidagi Mir Sayyid Bahrom maqbarasi, Hazora qishlog‘i yaqinidagi Deggaron masjidi, Qosim Shayx majmuasi, Vang‘ozidagi Toshmasjid hamda Nurotadagi Chashma majmuasi me’moriy shakllanishi, tarixiy vazifasi va mahalliy diniy an’analar bilan bog‘liqligi jihatidan bir-biridan farqlanadi. Mazkur obyektlarning ayrimlari dastlab ibodat yoki dafn maskani sifatida vujudga kelgan bo‘lsa, boshqalari taniqli diniy arboblarning faoliyati yoxud tabiiy suv manbalariga nisbatan shakllangan e’tiqodiy qarashlar bilan bog‘liq. Mintaqadagi muqaddas maskanlarni o‘rganishda ularning dastlabki vujudga kelish davri bilan keyinchalik ziyoratgoh sifatida shuhrat qozongan bosqichini farqlash zarur. Muayyan me’moriy obidaning qadimiyligi undagi ziyorat an’anasining ham aynan shu davrda paydo bo‘lganini anglatmaydi. Ayrim maskanlarning diniy nufuzi tarixiy shaxslar xotirasi, mahalliy rivoyatlar va keyingi davrlardagi diniy-ma’rifiy faoliyat ta’sirida mustahkamlangan.

Adabiyotlar tahlili (Literature review)

Navoiy viloyatidagi ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar tarixi yuzasidan ma’lumotlar turli davrlarda yaratilgan yozma manbalar, me’morchilik tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar va mahalliy o‘lkashunoslik asarlarida saqlangan. Ushbu adabiyotlar hududning tarixiy geografiyasi, diniy-ma’rifiy hayoti, muqaddas maskanlarning me’moriy tuzilishi hamda ayrim tarixiy shaxslar faoliyatini o‘rganish imkonini beradi. Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari Karmana va unga tutash hududlarning

o‘rta asrlardagi tarixiy-geografik mavqeyini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Asarda Buxoro mulkiga qarashli rustoqlar, shahar va qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy muassasalari haqida ma’lumotlar uchraydi [2]. Ibn Havqalning «Kitob surat al-ard» asari esa hududning geografik joylashuvi, aholi manzilgohlari va xo‘jalik faoliyati haqida qo‘shimcha ma’lumot beradi [3]. Abulkarim as-Sam’oniyning «Nasabnoma» asarida ayrim shaharlar, hududiy nisbalarga ega shaxslar va ularning ilmiy-diniy faoliyatiga oid ma’lumotlar jamlangan [4].

V.V. Bartoldning Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari Buxoro va Samarqand oralig‘idagi shaharlar, savdo yo‘llari va aholi manzilgohlarining tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega [1]. Ushbu asarlardagi ma’lumotlar Karmana, Nurota va ularga tutash hududlarni alohida manzilgohlar sifatida emas, balki o‘zaro iqtisodiy hamda madaniy aloqalar bilan bog‘langan tarixiy makon tarkibida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Navoiy viloyatidagi me’moriy yodgorliklarni ilmiy o‘rganishda V.A. Nilsenning ishlari alohida o‘rin tutadi. Uning Mir Sayyid Bahrom maqbarasiga bag‘ishlangan tadqiqotida inshootning me’moriy tuzilishi va qurilish xususiyatlari yoritilgan [5]. Deggaron masjidi haqidagi ishida esa obidaning tarhi, gumbazli konstruksiyasi va o‘rta asr me’morchiligidagi o‘rni o‘rganilgan [6]. A.K. Pisarchikning Karmana yodgorliklariga bag‘ishlangan tadqiqoti ham hududdagi tarixiy-me’moriy obyektlarning ilmiy tavsifini shakllantirishda muhim manbalardan biridir [7].

Karmana tarixiga oid mahalliy tadqiqotlarda shahar va uning atrofining diniy-ma’rifiy merosiga keng o‘rin berilgan. A. Hotamov va N. Bekniyozovning «Karmana – qadimiy diyor» asarida hududning qadimiy tarixi, tarixiy shaxslari va me’moriy obidalari haqida ma’lumotlar keltirilgan [8]. S. Inoyatov va O. Hayitovaning «Karmana tarix ko‘zgusida» asari esa Karmananing siyosiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini yoritadi [9]. Qosim Shayx Azizonning hayoti va diniy-ma’rifiy faoliyati S. Inoyatov, H. To‘rayev va M. Saidovning maxsus tadqiqotida ko‘rib chiqilgan [10].

Hazora–Deggaron hududidagi tasavvufiy muhitni o‘rganishda Mavlono Orif

Deggaroniy haqidagi asarlar muhim o‘rin tutadi. Sadriddin Salim Buxoriy va Samad Azimovning tadqiqotida Mavlono Orif Deggaroniy hayoti, uning diniy-ma’rifiy faoliyati hamda tasavvuf tarixidagi o‘rni yoritilgan [11]. A. Qandahorovning mazkur tarixiy shaxsga bag‘ishlangan asarida ham uning ma’naviy merosi va mahalliy diniy xotiradagi mavqeyi o‘rganilgan [12].

Nurota tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlar orasida B. Mirzayev va K. Ahmatqulovning «Nurota tarixidan lavhalar» asari muhim o‘rin egallaydi [13]. K. Ahmatqulovning «Nurota nurli diyor» kitobida hududning tarixiy rivojlanishi, muqaddas joylari va mahalliy madaniy an’analari haqida ma’lumotlar mavjud [14]. X. Berdiyevning Chilustun jome’ masjidi qurilishi tarixiga bag‘ishlangan maqolasi Nurotadagi diniy-me’moriy muhitning keyingi rivojlanish bosqichlarini aniqlashda ahamiyatlidir [15].

Qiziltepa hududidagi tarixiy maskanlar Q. Rajabov va R. Maqsudovning «Qiziltepa tarixi» asarida yoritilgan [16]. M. Yusupovaning Vang‘ozi qishlog‘i me’moriy yodgorliklariga bag‘ishlangan tadqiqoti esa mazkur hududdagi Toshmasjid va boshqa me’moriy obyektlarning tarixiy xususiyatlarini o‘rganishda muhim ilmiy manbadir [17].

Mavjud adabiyotlarda ayrim ziyoratgohlarning me’moriy qimmati, qurilish davri va tarixiy shaxslar bilan bog‘liqligi batafsil yoritilgan. Biroq ularning hududiy joylashuvi, dastlabki shakllanish sharoiti va keyingi davrlarda ziyorat markazlariga aylanish jarayonlari turli tadqiqotlarda alohida-alohida ko‘rib chiqilgan. Mazkur masalalarni tarixiy-geografik va diniy-madaniy jarayonlar bilan bog‘liq holda qiyosiy o‘rganish Navoiy viloyatining muqaddas maskanlari tarixini kengroq yoritish imkonini beradi.

Tadqiqot materiallari va metodlari (Materials and methods)

Tadqiqotda o‘rta asr yozma manbalari, me’morchilik tarixiga oid ilmiy adabiyotlar, mahalliy tarixiy tadqiqotlar va ziyoratgohlarga bag‘ishlangan maxsus asarlardan foydalanildi. Manbaviy materiallar Karmana, Hazora–Deggaron, Qiziltepa–

Vang‘ozi va Nurota hududlaridagi diniy-me’moriy obyektlarning tarixiy shakllanishi, joylashuvi va mahalliy diniy an’analar bilan bog‘liqligini o‘rganish nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Muhammad Narshaxiy, Ibn Havqal va Abulkarim as-Sam’oniy asarlaridagi ma’lumotlar hududning o‘rta asrlardagi aholi manzilgohlari, geografik o‘rni va diniy-madaniy muhitini aniqlash uchun asos bo‘ldi. V.A. Nilsen va A.K. Pisarchikning tadqiqotlari orqali ayrim tarixiy obidalarning me’moriy tuzilishi hamda qurilish xususiyatlari ko‘rib chiqildi. Mahalliy tarixiy adabiyotlardan ziyoratgohlarning shakllanish bosqichlari, tarixiy shaxslar va ular bilan bog‘liq diniy xotirani yoritishda foydalanildi.

Tarixiy-qiyosiy usul asosida turli hududlardagi ziyoratgohlarning vujudga kelish sharoitlari va rivojlanish xususiyatlari taqqoslandi. Karmana va Hazora–Deggaron hududlarida diniy arboblar hamda tasavvufiy an’analarning o‘rni, Qiziltepa–Vang‘ozida diniy muassasalar va homiylik faoliyatining ta’siri, Nurotada esa tabiiy suv manbalari bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar alohida ko‘rib chiqildi.

Tarixiy-topografik yondashuv ziyoratgohlarning qadimiy aholi manzilgohlari, savdo yo‘llari, masjidlar, maqbaralar, qabristonlar va tabiiy obyektlar bilan aloqadorligini aniqlashda qo‘llanildi. Tasniflash usuli yordamida muqaddas maskanlar tarixiy kelib chiqishi, me’moriy shakli va diniy vazifalariga ko‘ra guruhlarga ajratildi.

Manbalardagi ma’lumotlarni baholashda tarixiy dalillar bilan mahalliy rivoyatlar o‘rtasidagi tafovut hisobga olindi. Ayrim ziyoratgohlarning paydo bo‘lish sanasi, qurilish homiylari va diniy arboblar bilan bog‘liqligi haqidagi ma’lumotlar turli asarlarda bir xil bayon etilmaganligi sababli, bunday masalalarda yozma manbalar va me’moriy tadqiqotlar natijalariga ustuvor ahamiyat berildi.

Tadqiqot natijalari (Results)

Navoiy viloyatidagi muqaddas maskanlarning hududiy tarqalishi tarixiy aholi manzilgohlari va tabiiy-geografik sharoit bilan bog‘liq. Viloyat hududining katta qismi cho‘l mintaqasiga to‘g‘ri kelsa-da, Zarafshon vohasi va Nurota tog‘oldi hududlarida

qadimdan sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik hamda savdo aloqalari rivojlangan. Ushbu hududlarda doimiy aholi manzilgohlarining mavjudligi diniy muassasalarning yuzaga kelishiga ham sharoit yaratgan. Karmana va uning atrofi Buxoro hamda Samarqand o‘rtasidagi tarixiy yo‘llar tizimida joylashgan. V.V. Bartoldning tadqiqotlarida o‘rta asrlardagi Buxoro vohasi va unga tutash manzilgohlarning savdo yo‘llari bilan bog‘liqligi yoritilgan [1]. Karvon yo‘llarining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy aloqalarga, balki diniy g‘oyalar va ilmiy bilimlarning tarqalishiga ham xizmat qilgan. Karmana haqida Narshaxiy keltirgan ma’lumotlar bu hududda o‘rta asrlardayoq jome’ masjidi va diniy-ma’rifiy muhit mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [2, 95-b.]. Ibn Havqalning Karmaniyani iqtisodiy jihatdan rivojlangan manzil sifatida tavsiflashi hududdagi ijtimoiy hayotning barqarorligini anglatadi [3, 49-b.]. Bunday tarixiy sharoit keyinchalik diniy arboblar faoliyati bilan bog‘liq maskanlarning shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Ziyoratgohlarning vujudga kelishida diniy arboblarning mahalliy jamoalar orasidagi mavqeyi muhim bo‘lgan. Tasavvuf an’analari rivojlangan hududlarda shayxlar va so‘fiylar faoliyat yuritgan maskanlar, ularning qabrlari yoki xotirasi bilan bog‘liq joylar vaqt o‘tishi bilan ziyoratgohga aylangan. Bunday jarayon Karmana va Hazora–Deggaron hududlarida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Nurota vohasidagi muqaddas maskanlarning shakllanishida tabiiy suv manbalari muhim o‘rin tutgan. Chashma atrofida qadimiy manzilgoh, diniy inshootlar va mahalliy e’tiqodiy an’analarning birlashishi ushbu hududning boshqa ziyorat markazlaridan farq qiluvchi jihatidir [13; 14]. Ziyoratgohlar hududiy joylashuvining yana bir xususiyati ularning ayrim joylarda alohida inshoot sifatida emas, balki bir necha tarixiy obyektlarni birlashtirgan majmua ko‘rinishida shakllanganligidir. Qosim Shayx, Hazora–Deggaron va Nurota–Chashma majmualari tarkibida turli davrlarga oid diniy va me’moriy obyektlar mavjud. Bu holat muqaddas maskanlarning rivojlanishi ko‘pincha uzoq davom etgan tarixiy jarayon mahsuli bo‘lganini anglatadi.

Karmana Navoiy viloyatining qadimiy tarixiy markazlaridan bo‘lib, uning hududida turli davrlarga oid me’moriy va diniy yodgorliklar saqlanib qolgan.

Karmananing Buxoro vohasi bilan uzviy aloqalari, savdo yo‘llarida joylashuvi va diniy-ma’rifiy muhitining rivojlanishi bu yerda muqaddas maskanlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Karmana hududidagi eng qadimiy me’moriy yodgorliklardan biri Mir Sayyid Bahrom maqbarasidir. V.A. Nilsenning tadqiqotida mazkur maqbaraning me’moriy tarhi, qurilish uslubi va bezak xususiyatlari o‘rganilgan [5]. Inshootning pishiq g‘ishtdan bunyod etilishi, me’moriy mutanosibligi va bezak elementlari uning Markaziy Osiyo o‘rta asr me’morchiligi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mir Sayyid Bahrom maqbarasi Karmana hududidagi diniy-me’moriy merosning qadimiy qatlamini ifodalaydi. Uning ziyoratgoh sifatidagi ahamiyati tarixiy shaxs xotirasi va mahalliy diniy an’analar bilan bog‘liq. Mazkur obida me’moriy yodgorlik sifatida ham, mahalliy tarixiy xotirani saqlovchi maskan sifatida ham muhim o‘rin tutgan [5; 8].

Karmananing keyingi diniy-ma’rifiy taraqqiyoti Qosim Shayx Azizon faoliyati bilan bog‘liq. XVI asrda yashab faoliyat yuritgan Qosim Shayx Buxoro xonligi davridagi tasavvufiy muhitda muhim mavqega ega bo‘lgan shaxslardan biridir. Uning hayoti va faoliyati, Karmana diniy hayotidagi o‘rni hamda tarixiy shaxslar bilan munosabatlari S. Inoyatov, H. To‘rayev va M. Saidovning tadqiqotida yoritilgan [10]. Qosim Shayx nomi bilan bog‘liq me’moriy majmua Karmananing muhim diniy-tarixiy maskanlaridan biri sifatida shakllangan. Majmua tarkibidagi xonaqoh, daxma, hazira va boshqa inshootlar turli davrlardagi diniy hamda me’moriy faoliyatni aks ettiradi. Xonaqohning mavjudligi Qosim Shayx faoliyati bilan bog‘liq maskan faqat dafn joyi emas, balki tasavvufiy suhbatlar va diniy-ma’rifiy yig‘inlar o‘tkaziladigan hudud bo‘lganini ko‘rsatadi [10; 18].

Qosim Shayx majmuasining tarixiy rivojlanishi Karmananing Buxoro amirligi davridagi siyosiy va madaniy hayoti bilan ham bog‘liq. Majmua hududidagi Abdulahadxon hazirasi bu yerda turli davrlarga mansub tarixiy xotira qatlamlari mavjudligidan dalolat beradi. Buxoro amiri Abdulahadxonning Karmana bilan aloqalari va uning davridagi tarixiy jarayonlar S. Inoyatov, H. To‘rayev va O. Hayitovaning tadqiqotida yoritilgan [19]. Mir Sayyid Bahrom maqbarasi va Qosim Shayx majmuasining tarixiy shakllanishi bir xil sharoitda kechmagan. Mir Sayyid Bahrom

maqbarasida o‘rta asrlar dafn me’morchiligi va diniy xotira bilan bog‘liq xususiyatlar ustun bo‘lsa, Qosim Shayx majmuasida tasavvufiy faoliyat, xonaqoh an’analari va keyingi davr bunyodkorlik jarayonlari muhim o‘rin tutadi. Mazkur farqlar Karmana hududidagi ziyoratgohlar turli tarixiy davrlarda shakllanib, mahalliy diniy hayotning turli ko‘rinishlarini o‘zida aks ettirganini ko‘rsatadi.

Hazora–Deggaron hududi Navoiy viloyatidagi qadimiy diniy-me’moriy meros saqlangan maskanlardan biridir. Bu yerda joylashgan Deggaron masjidi va Mavlono Orif Deggaroniy bilan bog‘liq muqaddas joylar hududning tarixiy taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Deggaron masjidi Markaziy Osiyo o‘rta asrlar me’morchiligining qadimiy namunalaridan hisoblanadi. V.A. Nilsen mazkur obidani maxsus o‘rganib, uning qurilish uslubi, tarhi va me’moriy xususiyatlarini tavsiflagan [6]. Masjidning ichki makoni to‘rt ustun yordamida to‘qqiz qismga ajratilgan bo‘lib, markaziy gumbaz va unga tutash kichik gumbazlar binoning konstruktiv tuzilishida muhim o‘rin egallaydi. Deggaron masjidining qadimiy aholi manzilgohi hududida joylashganligi uning mahalliy diniy hayot bilan bog‘liq holda shakllanganini anglatadi. Masjidning me’moriy tuzilishi bu hududda islomiy ibodat inshootlarini barpo etish an’analari ancha erta davrlarda rivojlanganini ko‘rsatadi [6; 7].

Hazora–Deggaron hududining keyingi diniy-ma’naviy tarixi Mavlono Orif Deggaroniy faoliyati bilan bog‘liq. XIV asr tasavvufiy muhitida yashagan ushbu tarixiy shaxsning nomi Naqshbandiya tariqati tarixi va Buxoro vohasidagi diniy-ma’rifiy an’analar bilan chambarchas aloqador. Uning hayoti, faoliyati va tasavvufiy qarashlari Sadriddin Salim Buxoriy, Samad Azimov hamda A. Qandahorov tadqiqotlarida yoritilgan [11; 12]. Mavlono Orif Deggaroniy bilan bog‘liq sag‘ana, chilla joyi va boshqa muqaddas nuqtalar Hazora–Deggaron hududining ziyorat markazi sifatidagi ahamiyatini belgilagan. Mahalliy diniy xotirada ushbu maskanlar Mavlono Orif Deggaroniy hayoti va ma’naviy faoliyati bilan bog‘liq holda saqlanib kelgan. Deggaron masjidi va Mavlono Orif Deggaroniy qadamjosining bir hududda joylashgani ziyorat makonining tarixiy-topografik xususiyatlarini ochib beradi. Biroq mazkur obyektlarning vujudga kelishi bir

davrga mansub emas. Masjidning qadimiy diniy-me’moriy qatlamiga keyingi asrlarda tasavvufiy xotira bilan bog‘liq yangi mazmun qo‘shilgan. Natijada Hazora–Deggaron hududi turli tarixiy davrlarning diniy-madaniy merosini birlashtirgan maskanga aylangan. Mazkur hududdagi ziyorat an’analarining shakllanishida tarixiy shaxsga bo‘lgan hurmat, mahalliy diniy tasavvurlar va qadimiy me’moriy obyektlarning mavjudligi birgalikda ta’sir ko‘rsatgan. Deggaron masjidi bilan bog‘liq me’moriy meros va Mavlono Orif Deggaroniy xotirasi bir-birini to‘ldirgan holda hududning diniy-madaniy nufuzini belgilagan.

Qiziltepa hududi qadimdan Zarafshon vohasining tarixiy-madaniy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan. Hududdagi qadimiy manzilgohlar, arxeologik yodgorliklar, rabot va karvonsaroy qoldiqlari uning savdo yo‘llari hamda aholi joylashuvi tizimida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Q. Rajabov va R. Maqsudovning tadqiqotida Qiziltepaning tarixiy rivojlanishi, qadimiy aholi manzilgohlari va me’moriy merosi haqida ma’lumotlar berilgan [16]. Qiziltepa hududidagi muhim diniy-me’moriy markazlardan biri Vang‘ozi qishlog‘idir. Mazkur qishloq tarixiy rivojlanishi davomida Buxoro vohasining iqtisodiy va diniy-madaniy muhiti bilan aloqador bo‘lgan. Vang‘ozidagi Toshmasjid majmuasi ushbu hududda shakllangan diniy-me’moriy an’analarning muhim namunalaridan biridir. Toshmasjidning qurilish tarixi va me’moriy xususiyatlari M. Yusupovaning tadqiqotida yoritilgan [17]. Mazkur obidaning bunyod etilishi XVI asrdagi diniy homiylik an’analari va Buxoro vohasi diniy muhitining rivojlanishi bilan bog‘lanadi. Ayrim tarixiy ma’lumotlarda Toshmasjidning qurilishi Xoja Sa’d Jo‘yboriy faoliyatiga aloqadorligi va 1581-yilga mansubligi qayd etiladi. Bunday ma’lumotlar obidaning shakllanishida Buxoro diniy arboblari va homiylik an’analarining o‘rni mavjudligini ko‘rsatadi [17; 20].

Toshmasjid majmuasi tarixiy jihatdan faqat ibodat inshooti bilan chegaralanmagan. Uning atrofida madrasa, qabriston va boshqa yordamchi obyektlarning mavjud bo‘lgani haqidagi ma’lumotlar mazkur hududning diniy-ma’rifiy vazifalari keng bo‘lganini anglatadi. Masjid va madrasa o‘rtasidagi aloqadorlik diniy

ta’lim bilan jamoaviy ibodatning bir tarixiy makonda rivojlanganini ko‘rsatadi. Majmuaning me’moriy tuzilishida pishiq g‘ishtdan foydalanish, ustun-gumbazli konstruksiya va Buxoro vohasi me’morchiligiga xos ayrim belgilar kuzatiladi. Ushbu xususiyatlar Toshmasjidni mintaqadagi diniy-me’moriy an’analar bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi [17].

Vang‘ozidagi diniy maskanlarning shakllanishida mahalliy qabristonlar va tarixiy xotira ham muhim o‘rin tutgan. Masjidga tutash dafn joylari hamda diniy muassasalar bir hududda joylashgani uning mahalliy jamoa hayotidagi ahamiyatini oshirgan. Bunday majmualar diniy marosimlar o‘tkaziladigan joy bo‘lish bilan birga, aholi o‘rtasidagi madaniy va ma’naviy aloqalarning saqlanishiga ham xizmat qilgan. Qiziltepa–Vang‘ozi ziyoratgohlarining tarixiy taraqqiyotida diniy homiylik va ta’lim muassasalarining o‘rni Karmana hamda Hazora–Deggaron hududlaridagi ayrim muqaddas maskanlardan farqli xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu hududda masjid, madrasa va qabristonning birgalikdagi faoliyati ziyorat makonining shakllanishida muhim omil bo‘lgan.

Nurota vohasi Navoiy viloyatining qadimiy tarixiy-madaniy hududlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishida tabiiy suv manbalari, tog‘oldi geografik sharoiti va qadimiy mudofaa inshootlari muhim o‘rin tutgan. Nurota qal’asi, qadimiy manzilgohlar va tabiiy chashmalarning bir hududda joylashgani bu maskanning uzoq tarixiy taraqqiyotga ega ekanini ko‘rsatadi [13; 14]. Nurotadagi asosiy muqaddas maskan Chashma majmuasi hisoblanadi. Majmua tarkibida tabiiy buloq, Panjob qudug‘i, Shayx Abul Hasan Nuriy bilan bog‘liq ziyorat maskani, Chilustun jome’ masjidi, Gumbaz masjidi va qadimiy qal’a kabi tarixiy obyektlar mavjud. Ularning bir-biriga yaqin joylashuvi Nurota ziyorat markazining turli davrlarda shakllangan me’moriy va diniy qatlamlardan iboratligini ko‘rsatadi. Nurota Chashmasining muqaddas maskan sifatida e’tirof etilishi mahalliy aholining suv manbalariga nisbatan tarixiy qarashlari bilan bog‘liq. Chashma atrofida shakllangan rivoyatlar, diniy tasavvurlar va ziyorat an’analari mazkur tabiiy obyektning mahalliy ma’naviy hayotdagi mavqeyini mustahkamlagan. Shu bilan birga, buloqning mavjudligi aholi manzilgohining shakllanishi va xo‘jalik faoliyatining rivojlanishi uchun

ham muhim tabiiy sharoit yaratgan [14; 21]. Chashma yaqinida diniy inshootlarning bunyod etilishi tabiiy muqaddaslik bilan islomiy me’morchilik an’analari o‘rtasidagi tarixiy aloqadorlikni aks ettiradi. Mazkur jarayonda muqaddas suv manbai atrofida jamoaviy ibodat va diniy marosimlar uchun zarur bo‘lgan me’moriy muhit shakllangan.

Nurotaning diniy-me’moriy merosida Chilustun jome’ masjidi alohida o‘rin tutadi. Masjidning qurilish tarixi X. Berdiyevning tadqiqotida o‘rganilgan [15]. Mazkur manbada masjidning shakllanish bosqichlari, me’moriy xususiyatlari va mahalliy diniy hayotdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Chilustun masjidining tarixiy rivojlanishi Nurotada diniy inshootlar turli davrlarda qayta qurilib, kengaytirilib borganini ko‘rsatadi. Masjidning qirq ustunli ayvon bilan bog‘liq me’moriy ko‘rinishi mahalliy jome’ masjidlar qurilishi an’analarining o‘ziga xos namunalaridan biridir [15]. Nurotadagi Gumbaz masjidi ham Chashma majmuasi tarkibidagi muhim me’moriy obyektlardan hisoblanadi. Uning qurilishi va keyingi ta’mirlanish bosqichlari bilan bog‘liq ayrim tarixiy ma’lumotlarda Buxoro amirligi davridagi mahalliy boshqaruv vakillari hamda homiylarning ishtiroki tilga olinadi. Bunday ma’lumotlar Nurotadagi diniy maskanlar rivojlanishida mahalliy jamoalar bilan birga siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlarga ega shaxslar ham muhim rol o‘ynaganini anglatadi [13; 14]. Nurota ziyoratgohlarining tarixiy shakllanishi boshqa hududlardan tabiiy muhitning faol ishtiroki bilan farqlanadi. Karmana va Hazora–Deggaronda diniy arboblar hamda tasavvufiy xotira bilan bog‘liq maskanlar muhim o‘rin tutgan bo‘lsa, Nurotada qadimiy chashma, qal’a va diniy inshootlarning bir hududda jamlanishi tarixiy ziyorat markazining o‘ziga xos tuzilishini belgilagan.

Navoiy viloyatidagi ziyoratgohlarning tarixiy shakllanishi ularning me’moriy tuzilishi va diniy vazifalarida ham aks etadi. Hududdagi muqaddas maskanlar orasida maqbaralar, qadamjolar, masjidlar, xonaqohlar, haziralar, muqaddas chashmalar va yirik diniy-me’moriy majmualar mavjud. Maqbaralar ko‘pincha muayyan tarixiy shaxs, avliyo yoki diniy arbob xotirasi bilan bog‘liq holda shakllangan. Bunday inshootlarda dafn marosimlari bilan bog‘liq me’moriy an’analar va tarixiy xotira birlashadi. Mir Sayyid

Bahrom maqbarasi ushbu turdagi yodgorliklarning muhim namunalaridan biridir [5]. Qadamjolar esa har doim ham yirik me’moriy inshoot shaklida bo‘lmagan. Ayrim hollarda ular tarixiy shaxs faoliyati bilan bog‘liq joy, sag‘ana, chilla maskani yoki muqaddas deb e’tirof etilgan tabiiy obyekt sifatida shakllangan. Mavlono Orif Deggaroniy bilan bog‘liq muqaddas joylar bunday maskanlarning tarixiy xususiyatlarini aks ettiradi [11; 12].

Masjidlar dastlab jamoaviy ibodat ehtiyojlarini qondirish uchun bunyod etilgan bo‘lsa-da, ularning ayrimlari keyingi davrlarda tarixiy va ziyorat ahamiyatiga ham ega bo‘lgan. Deggaron masjidi, Vang‘ozi Toshmasjidi va Nurotadagi Chilustun jome’ masjidi diniy vazifasi bilan birga me’moriy meros sifatida ham muhim o‘rin tutadi [6; 15; 17]. Xonaqoh va haziralar tasavvufiy muhit hamda tarixiy dafn an’analari bilan bog‘liq. Qosim Shayx majmuasida mazkur ikki yo‘nalishning o‘zaro aloqadorligi kuzatiladi. Xonaqoh diniy-ma’rifiy faoliyat markazi sifatida, hazira esa tarixiy shaxslar xotirasini saqlovchi dafn maskani sifatida ahamiyat kasb etgan [10; 18]. Muqaddas chashma va quduqlar bilan bog‘liq ziyoratgohlarning shakllanishida tabiiy muhit yetakchi o‘rin tutadi. Nurota Chashmasi bunga misol bo‘lib, uning atrofida diniy-me’moriy inshootlarning jamlanishi tabiiy obyektning tarixiy ziyorat markaziga aylanish jarayonini aks ettiradi [14; 21].

Muhokama (Discussion)

Navoiy viloyatidagi ziyoratgohlarning tarixiy shakllanishi ularning joylashgan hududi, diniy-ma’rifiy muhiti va me’moriy xususiyatlariga qarab turlicha kechgan. Karmana, Hazora–Deggaron, Qiziltepa–Vang‘ozi va Nurota hududlaridagi muqaddas maskanlar umumiy tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, har birining shakllanishida muayyan omillar ustunlik qilgan. Karmana hududida qadimiy shahar madaniyati va tasavvufiy an’analar muqaddas maskanlar rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Mir Sayyid Bahrom maqbarasi va Qosim Shayx majmuasi tarixiy jihatdan turli davrlarga mansub bo‘lib, ularning me’moriy tuzilishi va diniy vazifalarida ham farqlar mavjud. Mir Sayyid Bahrom maqbarasida dafn me’morchiligi an’analari asosiy o‘rin tutsa, Qosim Shayx

majmuasida xonaqoh faoliyati, tasavvufiy meros va tarixiy xotira birlashgan.

Hazora–Deggaron hududining tarixiy taraqqiyotida qadimiy masjid bilan tasavvufiy xotira markazining bir hududda shakllanishi muhim xususiyat hisoblanadi. Deggaron masjidi va Mavlono Orif Deggaroniy bilan bog‘liq maskanlar turli tarixiy bosqichlarda vujudga kelgan. Mazkur holat ziyorat hududining diniy nufuzi bir davr bilan chegaralanmaganini, keyingi asrlarda yangi tarixiy va ma’naviy mazmun bilan boyib borganini ko‘rsatadi. Qiziltepa–Vang‘ozi hududidagi diniy-me’moriy merosda Buxoro vohasi bilan aloqalar, diniy homiylik va ta’lim an’analari muhim o‘rin egallaydi. Toshmasjid majmuasining shakllanishi diniy muassasalar faoliyati mahalliy jamoalar hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganini anglatadi. Masjid va madrasa bilan bog‘liq tarixiy ma’lumotlar Vang‘ozida diniy ta’lim hamda jamoaviy ibodatning rivojlanganini ko‘rsatadi. Nurota ziyorat markazining tarixiy taraqqiyotida tabiiy suv manbaining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etgan. Chashma majmuasi hududida buloq, masjidlar, maqbara va qadimiy qal’aning birgalikda joylashishi muqaddas maskanning shakllanishi tabiiy hamda ijtimoiy omillar bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Nurota misolida tarixiy ziyorat makoni dastlabki tabiiy va xo‘jalik muhiti asosida rivojlanib, keyinchalik diniy-me’moriy inshootlar bilan boyigan.

Muqaddas maskanlarning hududiy joylashuvida qadimiy aholi manzilgohlariga yaqinlik umumiy xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Karmana va Vang‘ozidagi diniy obyektlar tarixiy aholi markazlari bilan bog‘liq bo‘lsa, Nurotada tabiiy suv manbai va qadimiy qal’a atrofidagi makon muhim o‘rin tutadi. Hazora–Deggaronda esa diniy-me’moriy obyektlar bilan tasavvufiy xotira maskanlari o‘rtasidagi hududiy yaqinlik kuzatiladi.

Ziyoratgohlarning tarixiy taraqqiyotini baholashda muayyan obyektning dastlabki qurilish davri bilan uning keyinchalik ziyorat markaziga aylanish bosqichini farqlash muhimdir. Deggaron masjidi bunga misol bo‘la oladi. Uning qadimiy me’moriy tarixi Mavlono Orif Deggaroniy faoliyatidan oldingi davrga mansub bo‘lib, hududning keyingi tasavvufiy nufuzi dastlabki diniy-me’moriy meros bilan qo‘shilib ketgan. Xuddi

shunday, Qosim Shayx majmuasining tarkibidagi turli davrlarga oid inshootlar uning tarixiy qiyofasi bosqichma-bosqich shakllanganini ko‘rsatadi.

Ayrim ziyoratgohlarning tarixiy kelib chiqishi haqidagi yozma ma’lumotlar bilan mahalliy rivoyatlar o‘rtasida tafovutlar mavjud. Ayniqsa, muqaddas chashmalar, avliyolar bilan bog‘liq qadamjolar va ayrim dafn maskanlarining paydo bo‘lishi xalq xotirasida turli rivoyatlar orqali izohlanadi. Bunday rivoyatlar hududning diniy-madaniy tafakkurini o‘rganishda ahamiyatli bo‘lsa-da, me’moriy obyektlarning qurilish sanasi yoki tarixiy shaxslar faoliyatiga oid xulosalarni yozma manbalar va ilmiy tadqiqotlar bilan qiyoslash zarur. Navoiy viloyatidagi muqaddas maskanlar tarixini faqat diniy faoliyat doirasida o‘rganish ularning tarixiy ahamiyatini to‘liq ochib bermaydi. Mazkur maskanlar shaharsozlik, me’morchilik, tarixiy geografiya, mahalliy jamoalar hayoti va madaniy xotira bilan bog‘liq jarayonlarning ham tarkibiy qismidir. Karmana va Nurota misolida ziyoratgohlarning qadimiy aholi manzilgohlari bilan aloqadorligi, Hazora–Deggaronda tasavvufiy an’analarning diniy-me’moriy muhitga ta’siri, Vang‘ozida esa masjid va diniy ta’lim muassasalarining birgalikdagi rivojlanishi ushbu jihatlarni aks ettiradi. Mintaqadagi ziyoratgohlarning tarixiy qiyofasi turli davrlarda o‘zgargan. Ayrim obyektlar me’moriy jihatdan kengaytirilgan, boshqalari esa diniy vazifasining o‘zgarishi yoki tarixiy sharoitlar ta’sirida dastlabki ko‘rinishidan farqlana boshlagan. Biroq muqaddas maskanlar bilan bog‘liq tarixiy xotira ko‘plab hollarda mahalliy jamoalar orasida saqlanib qolgan. Bu holat ziyoratgohlarning tarixiy ahamiyati faqat me’moriy inshootlar bilan emas, balki ular atrofida shakllangan diniy-ma’naviy an’analar bilan ham belgilanayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa (Conclusion)

Navoiy viloyatidagi ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolarning tarixiy shakllanishi hududning qadimiy aholi manzilgohlari, tabiiy-geografik sharoiti, savdo yo‘llari va diniy-ma’rifiy muhiti bilan chambarchas bog‘liq holda kechgan. Zarafshon vohasi va Nurota tog‘oldi hududlarida shahar hamda qishloq manzilgohlarining rivojlanishi masjidlar, maqbaralar, xonaqohlar va boshqa diniy inshootlarning vujudga

kelishiga zamin yaratgan. Bu maskanlarning ayrimlari dastlab jamoaviy ibodat yoki dafn joyi sifatida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik mahalliy e’tiqod va tarixiy xotira bilan bog‘liq ziyorat markazlariga aylangan. Karmana hududida Mir Sayyid Bahrom maqbarasi va Qosim Shayx majmuasining mavjudligi diniy-me’moriy meros turli davrlarda shakllanganini ko‘rsatadi. Mir Sayyid Bahrom maqbarasi o‘rta asrlar dafn me’morchiligi bilan bog‘liq bo‘lsa, Qosim Shayx majmuasi tasavvufiy an’analar va diniy-ma’rifiy faoliyatning tarixiy markazlaridan biri sifatida rivojlangan. Ushbu obyektlar Karmananing Buxoro vohasi bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari kuchli bo‘lgan tarixiy hudud sifatidagi mavqeyini aks ettiradi.

Hazora–Deggaron ziyorat maskanlarining shakllanishida qadimiy diniy me’morchilik va tasavvufiy xotira o‘zaro tutashgan. Deggaron masjidining tarixiy-me’moriy xususiyatlari hamda Mavlono Orif Deggaroniy faoliyati bilan bog‘liq qadamjolar ushbu hududning diniy-ma’naviy ahamiyati turli asrlarda shakllanib borganini anglatadi. Mazkur tarixiy qatlamlarning bir hududda saqlanishi Hazora–Deggaronni Navoiy viloyatidagi o‘ziga xos ziyorat markazlaridan biriga aylantirgan.

Qiziltepa–Vang‘ozi hududida diniy homiylik va ta’lim an’analari ziyorat maskanlari rivojiga ta’sir ko‘rsatgan. Toshmasjid majmuasining tarixiy shakllanishi Buxoro vohasi diniy muhiti, mahalliy jamoalar hayoti va diniy muassasalar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan. Masjid, madrasa va qabristonning bir hududda mavjudligi diniy ta’lim, ibodat hamda tarixiy xotira o‘rtasidagi aloqadorlikni aks ettiradi.

Nurota vohasidagi muqaddas maskanlarning shakllanishida tabiiy suv manbalari alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Chashma majmuasi atrofida diniy va me’moriy obyektlarning jamlanishi Nurotaning qadimiy manzilgoh sifatidagi rivojlanishi bilan ziyorat an’analarining o‘zaro bog‘liq kechganini ko‘rsatadi. Muqaddas chashma, masjidlar, maqbara va qadimiy qal’aning bir makonda joylashishi hududning tarixiy-madaniy qiyofasini belgilagan.

Navoiy viloyatidagi muqaddas maskanlarning hududiy tarqalishi qadimiy voha madaniyati, tarixiy aholi manzilgohlari va diniy-ma’rifiy an’analar o‘rtasidagi

aloqadorlikni aks ettiradi. Ularning vujudga kelishi va taraqqiyotini tarixiy manbalar asosida o‘rganish mintaqaning diniy-madaniy hayoti, me’morchilik an’analari va mahalliy tarixiy xotirasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бартольд В. В. Сочинения. Том I. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука, 1963.

2. Наршахий Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи / форс тилидан А. Расулов таржимаси. – Тошкент: Kamalak, 1991. – 160 б.

3. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Ернинг сурати китоби / араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. – 400 б.

4. Абулкарим ас-Самъоний. Насабнома (Ал-Ансоб). – Бухоро, 2003.

5. Нильсен В. А. Мавзолей Мир-Саид Бахрам в Кермине // Материалы по истории и теории архитектуры Узбекистана. – Вып. 1. – Москва, 1950.

6. Нильсен В. А. Мечеть Диггарон в селении Хазара. – Ташкент, 1955.

7. Писарчик А. К. Памятники Кармине // Сообщения Института истории и теории архитектуры. – Вып. 4. – Москва, 1944.

8. Ҳотамов А., Бекниёзов Н. Кармана – қадимий диёр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 152 б.

9. Иноятов С., Ҳайитова О. Кармана тарих кўзгусида. – Тошкент: Шарқ, 2006. – 192 б.

10. Иноятов С., Тўраев Ҳ., Саидов М. Қосим Шайх Азизон. – Тошкент: Шарқ, 2000.

11. Садриддин Салим Бухорий, Самад Азимов. Ҳазрат Мавлоно Ориф

Деггароний. – Бухоро: Бухоро, 2004.

12. Қандаҳаров А. Буюк валий, улуғ аллома, атоқли тарбиячи. Ҳазрат Мавлоно Ориф Деггароний ҳаёти ва фаолияти ҳақида. – Тошкент: Sahhof, 2021.

13. Мирзаев Б., Аҳматқулов К. Нурота тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1997. – 78 б.

14. Аҳматқулов К. Нурота нурли диёр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 380 б.

15. Бердиев Х. Чилустун жомеъ масжиди қурилиши тарихидан // Тошкент ислом университети илмий-таҳлилий ахбороти. – 2013. – № 4. – Б. 33–36.

16. Ражабов Қ., Мақсудов Р. Қизилтепа тарихи. – Тошкент: Муҳаррир, 2011.

17. Юсупова М. Ванғози қишлоғи меъморий ёдгорликлари // Санъат. – 2003. – № 3. – Б. 9–13.

18. Қодиров Р. Қосим Шайх ёдгорлик мажмуи. – Тошкент: Vorisprint, 2010.

19. Иноятов С., Тўраев Ҳ., Ҳайитова О. Амир Абдулаҳадхон даврида Кармана. – Тошкент: Шарқ, 2004.

20. Бабаджанов Б. Джуйбари // Ўзбекистон ўрта асрларда: тарих ва маданият. – Тошкент, 2003.

21. Умурзоқов С., Умурзоқов О. Нурота чашмаси. – Тошкент: Фан, 2005.